

QAYDNOMA №7
2023 yil 25 yanvar kuni soat 14:00 da o'tkazilgan
ToshPTI Ilmiy Kengashining

QAROR LOYIHASI:

- Kun tartibi:**
1. 2023-yilda ilmiy – tadqiqot va innovatsion ishlarni rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar to'g'risida.
Ma'ruzachi: ToshPTI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor t.f.d., professor S.S. Gulyamov.
 2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalari reytingini aniqlash, tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 467-son qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida institutning 2022-yil davomidagi faoliyati bo'yicha reyting ko'rsatkichlarini tahlili.
Ma'ruzachi: Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, t.f.d., dotsent J.B. Sattarov.
 3. "Korrupsiyasiz soha" loyihasi bo'yicha olib boriladigan chora-tadbirlar to'g'risida.
Ma'ruzachi: Korrupsiyaga qarshi kurashish va "Komplayens nazorati" bo'limi boshlig'i, t.f.d., dotsent X.A.Rasulov.
 4. Pediatriya va terapiya yo'nalishidagi kafedralarida o'qish jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini, interaktiv o'qitish shakllarini va usullarini joriy etilganlik va ularning samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari haqida.
Ma'ruzachi: Pediatriya va terapiya yo'nalishidagi fanlar bo'yicha fan o'quv uslubiy kengashining raisi, t.f.d., professor Sh.A.Agzamova.
 5. ToshPTI'da ijro intizomi xolati. Fuqarolarning murojaatlarida ko'tarilgan masalalar tahlili.
Ma'ruzachi: ToshPTI JYUSHM bilan ishlash nazorat monitoring bo'limi boshlig'i t.f.d., professor Sh.I.Ruziyev.
 6. Professor va o'qituvchilarni tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash.
Ma'ruzachi: Saylov komissiyasi raisi.
 7. Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.
Ma'ruzachi: Ilmiy Kengash kotibi.
 8. Turli masalalar.

Ko'rib chiqildi:

Birinchi masala bo'yicha ma'ruzachi ToshPTI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor t.f.d., professor S.S. Gulyamov. 2023-yilda ilmiy – tadqiqot va innovatsion ishlarni rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar to'g'risida.

1 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

O'rnatilgan tartibda institutni yillik reytingini aniqlash, tahlil qilish, faoliyatni takomillashtirishga oid ishlarni amalga oshirish, 2023-yilgi rejasini tuzish;

Institutda 2023-yil uchun rejalashtirilgan respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarni tashkil etilishini ta'minlash, fakultet va kafedralarda dolzarb ilmiy mavzularda seminarlar faoliyatini tashkil etish;

Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi fundamental, amaliy, innovatsion, yoshlar loyihalari va xalqaro grantlar tanlovida kafedralarning faol ishtirokini ta'minlash;

Professor o'qituvchilar ilmiy ishlarini raqamlashtirish, bibliografik bazasini shakllantrish;

Barcha yaratiladigan ilmiy ishlarga DOI raqamini berish (maqola, monografiya, darslik, o'quv qo'llanma, tezislar, va k.);

Mavjud Pediatriya va Yevraziyskiy vestnik pediatrii jurnallardagi maqolalarni raqamlashtirish va skopusga tayyorlash;

Institut professor-o'qituvchilari va olimlarining SCOPUS/Web of Science ma'lumotlar bazasidagi jurnallarda chop etiladigan maqolalar salmog'ini oshirish;

Iqtidorli yoshlarni izlash, saralash, ular bilan ishlash jarayonlarini boshqarish va ularga ko'maklashish.

Ikkinchi masala bo'yicha ma'ruzachi Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i, t.f.d., dotsent J.B. Sattarov. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalari reytingini aniqlash, tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 467-son qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida institutning 2022 yil davomidagi faoliyati bo'yicha reyting ko'rsatkichlarini tahlili.

2– masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i, t.f.d., dotsent J.B. Sattarov. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalari reytingini aniqlash, tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 467-son qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida institutning 2022 yil davomidagi faoliyati bo'yicha reyting ko'rsatkichlarini tahlili:

"2022-yil Institut reytingi" ning birlamchi xujjatlari pdf shaklda Davlat inspeksiyasi talabalari asosida shakllantirilsin va TSNQB topshirilsin. Muddat: 30-yanvar 2023-yil.

O'quv-uslubiy jarayonda – 2022-yilga rejaga kiritilgan darslik va o'quv qo'llanmalarni professor-pedagoglar tomonidan ishlab chiqilgan, guvohnoma olingan darslik va o'quv qo'llanmalarni nashr etish; xorijiy til va AKT bilish darajasini oshirish maqsadida qo'shimcha o'quv kurslar tashkil etish va doimiy ravishda institut professor-o'qituvchilarini mazkur o'quv kurslarda o'qishlarini ta'minlash;

Ilmiy yo'nalishda – himoyalar sonini oshirish; xorijiy va Respublikada OAK ro'yxatiga kiritilgan jurnallarda maqolalar chop etish salmog'ini oshirish; «Web of Science», «Scopus», «Google Scholar» bazalariga maqolalarni joylash, hamda yangi maqolalarga bazalarga kiritilgan maqolalarni adabiyotlar ro'yxatiga kiritgan holda institut iqtibosligini oshirish;

Xalqaro hamkorlik aloqalari yo'nalishida – Nufuzli 1000 talik ro'yxatiga kirgan OTMlari bilan kafedralar xalqaro aloqalar bo'yicha hamkorlik memorandumlari sonini oshirish; nufuzli 1000 talik ro'yxatga kirgan OTMlarda institut professor-pedagoglarini dars o'tishlari bo'yicha ishlarni yanada kuchaytirish; talabalar (klinik ordinatorlar, magistrlar, ilmiy tadqiqotchilar va professor-o'qituvchilar) akademik mobillik hamkorligini kuchaytirish; xalqaro loyihalarda ishtirok etish salmog'ini oshirish; hamkorlikdagi o'quv dasturlar, adabiyotlar va monografiyalar sonini oshirish.

2023-yil yanvar oyidan boshlab, har 6 oylikda kafedralarni institut tomonidan tasdiqlangan reja asosidagi reytingini olib borish faoliyati o'rganilib, ilmiy kengashda kafedra mudirlariga ma'lumotlar taqdim etilib boriladi. Monitoring natijalari (ogohlantirish tarzida) taqdim etiladi va yil oxirida rejani bajarmagan kafedra mudirlari rektorat kengashida muxokama qilinadi.

Uchinchi masala bo'yicha ma'ruzachi Korrupsiyaga qarshi kurashish va "Komplayens nazorati" bo'limi boshlig'i, t.f.d., dotsent X.A.Rasulov. "Korrupsiyasiz soha" loyihasi bo'yicha olib boriladigan chora-tadbirlar to'g'risida ma'lumot ijro uchun qabul qilindi.

3 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

Mazkur taqdimot ma'lumot uchun qabl qilinsin;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha barcha bo'limlar, kafedralar kesimida targ'ibot-tushuntirish ishlari olib borilishi ta'minlansin;

Xuquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda talaba-yoshlar o'rtasida profilaktik uchrashuvlar tashkil etilsin;

Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan muddatli hisobotlar tegishlilik bo'yicha o'z vaqtida taqdim etib borilishi ta'minlansin.

Turtinchi masala bo'yicha ma'ruzachi Pediatriya va terapiya yo'nalishidagi fanlar bo'yicha fan o'quv uslubiy kengashining raisi, t.f.d., professor Sh.A.Agzamova. Pediatriya va terapiya yo'nalishidagi kafedralarida o'qish jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini, interaktiv o'qitish shakllarini va usullarini joriy etilganlik va ularning samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari xaqidagi ma'lumot qabul qilindi.

4 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

O'quv jarayonini yaxshilash maqsadida metodik ta'minotni (darsliklar, elektron qo'llanmalar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, testlar) boyitish;

Himoyalar sonini oshirib, ilmiy saloxiyatni ko'tarish;

Konferensiyalar, olimpiadalar tashkil etish bo'yicha faollikni oshirish;

Ilmiy loyihalar va startaplar bo'yicha ish olib borish;
Anjumanlarda ishtirok etishni faollashtirish.

Beshinchi masala bo'yicha ma'ruzachi ToshPTI JYUSHM bilan ishlash nazorat monitoring bo'limi boshlig'i t.f.d., professor Sh.I.Ruziyev.ToshPTIda ijro intizomi xolati. Fuqarolarning murojaatlarida ko'tarilgan masalalar tahlili.

5 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

JYUSHM bilan ishlash nazorat monitoring bo'limi boshlig'i t.f.d., professor Sh.I.Ruziyev.ToshPTIda ijro intizomi xolati. Fuqarolarning murojaatlarida ko'tarilgan masalalar tahlili axborot va ijro uchun qabul qilindi.

Oltinchi masala bo'yicha masala bo'yicha ma'ruzachi Saylov komissiyasi raisi SH.T. Muxamedxanova "Professor va o'qituvchilarni tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash" natijalari to'g'risida hisobot berib o'tdilar.

6 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

Saylov komissiyasi raisi SH.T. Muxamedxanova "Professor va o'qituvchilarni tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash" natijalari to'g'risida hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Ettinchi masala bo'yicha ma'ruzachi ToshPTI Ilmiy Kengash kotibi tasdiqlash uchun taqdim etilgan darslik, o'quv qo'llanma va uslubiy tavsiyanomalarni o'qib eshittirdi. Ularning muhokamasi bo'lib o'tdi.

7 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

ToshPTI Ilmiy Kengash a'zolari tomonidan tasdiqlash uchun taqdim etilgan darslik, o'quv qo'llanma, monografiya va uslubiy tavsiyanomalar ovozga qo'yildi va bir ovozdan keyingi bosqichga tavsiya etildi.

8. Turli masalalar. ToshPTI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor t.f.d., professor S.S. Gulyamov. tomonidan Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Pediatriya va tibbiy biologiya fakulteti ilmiy pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga 2022 yil natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019 yil 24 dekabdagi "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida"gi 1030 – son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021 yil 27 avgustdagi 545 – sonli qarori tahriri asosida qo'shimcha haq to'lashni belgilash talablari, miqdori va muddatlari haqida o'qib eshittirildi va Ilmiy Kengash a'zolari tomonidan bir ovozdan maqulandi.

Kengash raisi
t.f.d., professor:



B.T. Daminov

Kengash kotibi
t.f.d., dotsent:

X.A. Akramova